



XORIYIY MAMLAKATLARDA INSON HUQUQLARINI CHEKALSHNING ASOSIY MEZONLARI.

Bobonazarov Muhammadjon Muzaffar o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Xalqaro huquq va inson huquqlari” mutaxassisligi magistiri

muzaffarovichmuhammadjon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15791730>

ARTICLE INFO

Received: 24th June 2025

Accepted: 25th June 2025

Published: 30TH June 2025

KEYWORDS

“Favqulodda holatdan maxsus ehtiyotkorlik holatiga o'tish”, “National Emergencies Act”, “Freedom of speech”, “Privacy rights”.

ABSTRACT

Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlar qonunchiligida inson huquqlarini cheklash masalalari bayon qilingan. Shuningdek, bu boradagi xorijiy mamlakatlar tajribalari atroflicha muhokama qilingan. Ularning qonunchiligidagi yutuqlar o'rganilib bizning mamlakatimiz qonunchiligiga joriy qilinishi kerak bo'lgan jihatlar ham bayon qilingan.

Kirish. Favqulodda holatlar davomida inson huquqlarining cheklanishi – davlat va fuqaro o'rtasidagi huquqiy muvozanatni saqlab qolishga doir murakkab masalalardan biridir. Inson huquqlarini har qanday sharoitda, hatto favqulodda holat e'lon qilingan vaqtlarda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib qoladi. Shu bois turli davlatlar bu masalaga o'zining siyosiy tizimi, konstitutsiyaviy tamoyillari va xalqaro majburiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashadi. Mazkur rejada ayrim xorijiy mamlakatlarda favqulodda holatlarda inson huquqlarining cheklanishiga oid qonunchilik, amaliy tajriba va institutsional mexanizmlar qiyosiy tahlil qilinadi.

Germaniya tajribasiga yuzlansak va favqulodda holat joriy qilish borasida qanday o'ziga xos jihatlari bor degan savollarga atroflicha yuzlansak. Barchamizga ma'lumki Germaniya jahonning rivojlanagan mamlakatlaridan biri sifatida tan olingan va huquqiy tizimi ham ko'plab davlatlar havas qiladigan darajaga yetgan. Germaniya qonunchiligiga ko'ra inson huquqlari muayyan istisno holatlarda, asosan urush davrida yoki xalq hayotiga tahdid soladigan boshqa favqulodda vaziyatlarda vaqtinchalik cheklov joriy qilinishi mumkin. Germaniya asosiy qonunida cheklov bandi aniq belgilanmagan ammo bunday holatlar uchun protsessual qoidalar mavjud. Ushbu joriy qilinayotgan cheklovlar Germaniya qonunlariga mos va Germaniyaning xalqaro huquqiy hujjatlariga qarama qarshi bo'lmasligi kerak¹. Shuningdek, Germaniya asosiy qonunida pandemiya uchun maxsus qoidalar nazarda tutilmagan. Biroq, tabiiy ofatlar va yirik baxtsiz hodisalar va boshqa ichki yoki tashqi favqulodda vaziyatlarda Asosiy qonun konstitutsiyaviy tuzumning amal qilishini ta'minlash uchun muayyan protsessual va tashkiliy qoidalarni belglaydi. Ammo ushbu qoidalar favqulodda vaziyatlarda inson huquqlarini buzilishini oqlamaydi. Shuningdek, Germaniya Federativ Respublikasida favqulodda holatni tartibga soluvchi maxsus qonun hujjatlari mavjud emas. Asosiy qonunning 70-moddasiga binoan, shtatlar (tumanlar) qonun chiqarish huquqiga ega, agar asosiy qonun Federatsiyaga qonun chiqaruvchi hokimiyatni bermasa. Jamoat xavfsizligi uchun xavflarni oldini olish Germaniya federal tizimidagi shtatlarning

¹ <https://www.venice.coe.int/files/EmergencyPowersObservatory/GER-E.htm>

yurisdiksiyasidadir. Shuning uchun, barcha 16 shtat tabiiy ofatdan himoya qilish to'g'risidagi qonunlarni qabul qiladi².

COVID-19 pandemiyasi davrida Germaniya qanday yo'l tutgan favqulodda holat qilganmi yoki yo'qmi degan savolga javob beradigan bo'lsak. 2020-yil 27-martda Bundestag "Infeksiyalardan himoya qilish to'g'risidagi qonun"ga kiritilgan o'zgartirish bilan milliy ahamiyatga ega bo'lgan epidemik vaziyatni e'lon qilgan va bu favqulodda holat sifatida baholangan.. Bundan avval, 2020-yil 16-mart kuni Bavariya Ichki ishlar, sport va integratsiya vazirligi Bavariyaning tabiiy ofatlardan himoya qilish to'g'risidagi qonunining 4-bandi asosida butun hudud bo'ylab tabiiy ofat holatini e'lon qilgan.

Asosiy qism. Bundan tashqari 2020-yil 19-noyabrda Germaniya parlamenti "Epidemik vaziyatda aholining himoyasini kuchaytirish uchun uchinchi qonunni (Dritte Gesetz zum Schutz der Bevölkerung bei einer epidemischen Lage von nationaler Tragweite) qabul qildi. Ushbu qonun, COVID-19 tarqalishini cheklash uchun zarur choralarni amalga oshirishda konstitutsiyaviy huquqlarni buzmaslikni ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek, laboratoriya quvvatlarini oshirish, tez antigen testlarini joriy etish, xavfli hududdan qaytgan sayohatchilar uchun yagona talablarni belgilash, emlash dasturlarini tayyorlash va sog'liqni saqlash xizmatlarini raqamlashtirish kabi choralarga ham asos bo'ldi³.

COVID-19 davridagi favqulodda holat qachon tugatilgan degan savolga javob beradigan bo'lsak, 2021-yil 25-noyabrda Germaniya hukumati COVID-19 pandemiyasi bilan bog'liq favqulodda holatni tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan. Sog'liqni saqlash vaziri Jens Spahn bu qarorni "favqulodda holatdan maxsus ehtiyotkorlik holatiga o'tish" deb atagan⁴. Demak Germaniya tajribasini umumiyashtiradigan bo'lsak, Germaniya favqulodda holatlarni faqat ekstremal vaziyatlarda, masalan, tabiiy ofatlar yoki milliy xavf-xatarlar yuzaga kelganda e'lon qiladi. Favqulodda holat davrida ham inson huquqlari kafolatlari saqlanadi, ammo ba'zi cheklovlar joriy etilishi mumkin.

Endi esa yana bir rivojlangan davlat hisoblangan Yaponiyaning favqulodda holatlarga doir tajribasini o'rganamiz. Yaponiyaning favqulodda holatlar tizimi ikki asosiy qonunga bo'linadi:

1. Disaster Relief Act ("Tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish to'g'risidagi qonun") ushbu qonun 1947-yil 18-oktabrda qabul qilingan va 35 ta moddadan iborat. Ushbu qonun ko'ra tabiiy ofatlar yoki favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda davlat tomonidan zarur yordam ko'rsatishni tartibga solgan.

2. Act on Special Measures for Pandemic Influenza and New Infectious Diseases Preparedness and Response ("Yuqumli kasalliklar va maxsus chora-tadbirlar to'g'risidagi qonun"). Ushbu qonun 2012-yilda qabul qilingan bo'lib, pandemiya yoki yuqumli kasalliklar holatida hukumatga favqulodda holat e'lon qilish va zarur choralarni, ya'ni insonlarning ma'lum bir huquqlarini cheklash imkonini beradi.

Biz e'tibor qaratishimiz kerak bo'lgan qonun bu ikkinchi qonun hisoblanadi, chunki aynan shu qonunda yuqumli kasalliklar tarqalgan vaqtda favqulodda holat e'lon qilinishi va insonlarning ayrim huquqlari cheklanishi haqida tegishli normalar mavjud. Demak, ushbu qonunning maqsadi pandemiya yoki yangi yuqumli kasalliklar holatida zarur choralarni ko'rish. Favqulodda holat e'lon qilish tartibi esa, Bosh vazir pandemiya yoki yangi yuqumli kasalliklar holatida favqulodda holat e'lon qiladi. Endi bevosita bu e'lon qilingan favqulodda holat davrida insonlarning qaysi huquqlari cheklanishi mumkin degan savolga javob beramiz. Ushbu qonunning 19-moddasiga ko'ra "fuqarolarning shaxsiy erkinlik va harakatlanish

² <https://www.venice.coe.int/files/EmergencyPowersObservatory/GER-E.htm>

³ <https://www.loc.gov/item/global-legal-monitor/2020-11-24/germany-amendments-to-infectious-diseases-protection-act-enter-into>

⁴ <https://www.dw.com/en/germany-pandemic-state-of-emergency-may-end-in-november/a-5954042>

huquqi” cheklanadi⁵. Ya’ni kasallangan yoki kasallik tarqatganlikda gumon qilingan shaxslar izolyatsiya yoki karantinga olinishi mumkin. COVID-19 davrida ayrim bemorlar sog’liqni saqlash muassasalarida majburan izolyatsiya qilingan.

Keyingi cheklanishi mumkin bo’lgan inson huquqlardan biri bu “yashash joyi va harakatlanish erkinligi huquqi”, favqulodda holat e’lon qilinganda fuqarolarga o’z uylarida qolish tavsiya etiladi. Ba’zi hududlarga kirish yoki chiqish cheklanishi mumkin. Aynan Yaponiyada COVID-19 davrida e’lon qilingan favqulodda holat davrida Tokyo va Osaka hududlarida istiqomat qilgan insonlarga uyda qolish buyurilgan.

Navbatdagi cheklanishi mumkin bo’lgan huquqlardan biri bu “tadbirkorlik va mulkdan foydalansih huquqi”⁶. Do’konlar, restoranlar, klublar va boshqa muassasalarga ish vaqtini cheklash, vaqtincha yopish tavsiya etilishi yoki buyurilishi mumkin. Aynan pandemiya davrida restoranlar soat 20:00 da yopilishi talab qilingan, ba’zilariga jarima qo’llanilgan.

Navbatdagi cheklanishi mumkin bo’lgan huquq “so’z erkinligi va yig’ilish huquqi”. Ushbu yuqorida ta’kidlangan qonunga ko’ra ommaviy yig’inlar (konsertlar, mitinglar, festivallar) o’tkazish favqulodda holat joriy qilingan davrda taqiqlanishi mumkin. Ushbu cheklovlar to’g’ridan to’g’ri so’z erkinligini cheklamasligi mumkin, ammo jamoaviy faoliyatni cheklaydi.

Keyingi cheklanishiga ruxsat berilgan inson huquqlaridan biri bu “maxfiylik va sog’liq haqidagi ma’lumotlar”. Ushbu cheklovga ko’ra kasallangan shaxslar haqida sog’liqni saqlash idoralari tomonidan ma’lumotlar yig’ilishi mumkin.

Demak yaponiyaning favqulodda hlat rejimi joriy qilishi va bu davrda inson huquqlarini chejlash borasidagi tajribasini xulosalaydigan bo’lsak, Bosh vazir favqulodda holatni e’lon qilish huquqiga ega hisoblandi. Shuningdek, Yaponiyada favqulodda holatlar e’lon qilinganda, majburiy cheklovlar o’rniga ijtimoiy bosim va fuqarolarni o’z xohishiga ko’ra choralar ko’rishga undaydi. Masalan, COVID-19 pandemiyasi davrida majburiy cheklovlar o’rniga ijtimoiy masofani saqlash va ijtimoiy mas’uliyatga urg’u bergan. Shuningdek, COVID-19 pandemiyasi davrida bir necha bor favqulodda holatlar e’lon qilingan, ammo bu choralar majburiy emas, balki tavsiya sifatida qabul qilingan. Yaponiyada favqulodda holatlarni e’lon qilishda hukumatning tavsiyalari va jamoatchilikning ongli ishtiroki katta ahamiyatga ega.

Favqulodda holatlarda inson huquqlarini cheklash borasida AQSH tajribasiga murojaat qilamiz. Chunki, bu davlat tajribasidan o’rganadigan narsalar juda ko’p. AQSH da favqulodda holatlarni joriy qilish tizimi, prezidentga muayyan krizislar yoki favqulodda vaziyatlarga javoban kengaytirilgan vakolatlar beradi. Bu favqulodda holatlarni joriy qilishning asosiy maqsadi davlat xavfsizligini ta’minlash va tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyatishi yartishdir. Endi favqulodda holatlarni joriy qilishning huquqiy asoslariga to’xtalamiz. Birinchi navbatda biz murojaat qiladigan huquqiy hujjat bu 1976-yilda qabul qilingan “National Emergencies Act”⁷. Ushbu qonun prezidentga favqulodda holatni e’lon qilish huquqini beradi. Prezident favqulodda holatni e’lon qilganidan so’ng, 130 dan ortiq maxsus vakolatlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo’ladi. Ammo bu vakolatlar faqat qonuniy asosda va aniq maqsadlar uchun ishlatilishi kerak. E’lon qilingan favqulodda holat darhol Kongresga yuborilishi va Federal ro’yxatda e’lon qilinishi kerak. Favqulodda holat e’lon qilingan kundan 30 kun davom etadi. Agar Kongress tomonidan tasdiqlanmasa, favqulodda holat tugaydi. Shuningdek, president favqulodda holatni tugatish huquqiga ega. Agar Kongress qarshi chiqsa, favqulodda holat davom etishi mumkin. Ushbu qonun federal qonun bo’lib, avvalgi barcha milliy favqulodda vaziyatlarni tugatish va favqulodda vaziyatlarni rasmiylashtirish uchun

⁵ “National Action Plan for Pandemic Influenza and New Infectious Diseases”
<https://www.cas.go.jp/jp/seisaku/ful/keikaku/pdf/national%20action%20plan.pdf>

⁶ “National Action Plan for Pandemic Influenza and New Infectious Diseases”
<https://www.cas.go.jp/jp/seisaku/ful/keikaku/pdf/national%20action%20plan.pdf>

⁷ National Emergencies Act. <https://www.govinfo.gov/content/pkg/COMPS-10385/pdf/COMPS-10385.pdf>

qabul qilingan Amerika Qo'shma Shtatlari dederal qonunidir. Amerika Qo'shma Shtatlarida birinchi bo'lib favqulodda holatni e'lon qilgan president Vudro Vilson bo'lib, u 1917-yil 5-fevralda quyidagilarni e'lon qilgan:

“Men AQShning fermer xo'jaliklari, o'rmonlari, konlari va ishlab chiqarish sanoati mahsulotlarini, ularning iste'molchilariga xorijda va Qo'shma Shtatlar ichida tashish uchun dengiz tonnajining yetarli emasligidan kelib chiqadigan milliy favqulodda vaziyat mavjudligini aniqladim...”⁸. Endi yuqorida ta'kidlab o'tgan qonun hujjatidan tashqari yana AQSh da “Stafford Act” (1988) deb nomlangan huquqiy hujjat mavjud bo'lib ushbu hujjat – tabiiy ofatlar va yirik halokatlarda davlatning aralashuvini ta'minlaydi. Endi AQSh qonunchiligiga ko'ra qaysi inson huquqlari cheklanishi mumkin degan savolga javob beradigan bo'lsak, bular quyidagilardan iborat:

1. Harakat erkinligi (Freedom of movement) – karantin, komendantlik soati yoki evakuatsiya choralari bu huquqlar vaqtinchalik cheklanishi mumkin. Ushbu huquqning cheklanishi borasida AQSh da anchagina yaxshi tajriba bor va shunga to'xtatlamiz. Ushbu ishning nomi (“Jacobson v. Massachusetts 1905”). Ishning mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, Henning Jacobson 1902-yilda Kembrij shahrida kichik variola (kichik chechak) tarqashi sababli, Massachusetts shatatining sog'liqni saqlash kengashi tomonidan majburiy emlashni amalga oshirishga qarshi chiqdi⁹. Ya'ni shtat tomonidan joriy qilingan emlash olmagan odamlarning harakat erkinligini cheklash haqidagi qarori ustidan sud organlariga murojaat qilgan. Va ushbu ish AQSh Oliy sudiga qadar yetib brogan va u chiqargan hukmning mazmuni quyidagicha bo'lgan. Oliy sud Massachusettsning majburiy emlash to'g'risidagi qonunini Konstitutsiyaga muvofiq deb topgan. Sud raisi Jon Marshall Harlanning qarorida quyidagilar ta'kidlangan:

“Har bir tartibga solingan jamiyatda, o'z a'zolarining xavfsizligini ta'minlash mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan davlatda, shaxsning erkinligi ba'zan bunday xavf-xatarlar ostida cheklanishi mumkin”¹⁰.

Sud shuningdek majburiy emlashning “zulm” emasligini ta'kidladi, agar u “ommaviy xavfsizlik uchun zarur bo'lganidan ortiq bo'lmasa” va “qonuniy” bo'lsa. Aynan mana shu “Jacobson” ishi COVID-19 pandemiyasi davrida majburiy emlash va boshqa jamoat sog'ligini saqlash choralari qo'llashda yuridik asos sifatida eng muhim bo'lgan yuridik pretsidentlardan biri sifatida AQSH da haliyam qo'llanilib kelmoqda. Shuningdek, sudning qarori, davlatning sog'liqni saqlash va xavfsizlikni ta'minlash uchun qonunlar chiqarish va bu jarayonda insonlarning ma'lum bir huquqlarini vaqtinchalik cheklash huquqini tan oldi va bu huquqni amalga oshirishda cheklovlarining “zaruriyat” va “adolat” asosida bo'lishi kerakligini ta'kidladi.

2. So'z erkinligi (Freedom of speech) – urush davrida, terrorizm xavfi bo'lsa, hamda yolg'on ma'lumot tarqatish orqali xalqni vahimaga tushurishga urinishlar bo'lsa, bunday holatlarda so'z erkinligi huquqi ham vaqtinchalik cheklanishi mumkin. Ushbu huquqning ham cheklanishi borasida AQSH huquqida muhim bo'lgan yuridik pretsidentlardan biri bor va shuni ham qisqacha tahlil qilamiz. Ushbu ish “Schenck vs United States (1919)” deb nomlanadi – bu AQSH Oliy sudining muhim konstitutsiyaviy ishi bo'lib, so'z erkinligi chegaralarini belgilab bergan, ayniqsa urush vaqtida xavfsizlik va erkinlik o'rtasidagi muvozanatni aniqlashda asosiy precedentga aylangan. Ishning mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, Charles Schenck AQSH Sotsialistik partiyasi kotibi bo'lib, birinchi jahon urushi paytida harbiy xizmatga chaqiruvga qarshi chiqqan. U minglab kishilarga chaqiruvni rad etishga undovchi pamfletlar tarqatgan. Bu pamfletlar “Espionage Act of 1917” (Urush davrida

⁸ <https://www.presidency.ucsb.edu/documents/proclamation-1354-emergency-water-transportation-the-united-states>

⁹ <https://supreme.justia.com/cases/federal/us/197/11/>

¹⁰ <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC1449222/>

davlatga qarshi tashviqot, harbiy xizmatga xalaqit berish to'g'risidagi qonun) ni buzgan deb topilgan¹¹. Schenck urush davrida AQSH hukumati harbiy siyosatiga qarshi "xavfli tashviqot" olib borganlikda ayblanib hibsga olingan. Ish Oliy sudga qadar yetib borgan. Sudya Oliver Wendell Holmes Jr. boshchiligidagi sud bir ovozdan Schenckni aybdor deb topgan. Sud Schenckning harakatini so'z erkinligi bilan himoya qila olmasligini, chunki uning harakati urush paytida "aniq va yaqqol xavf" tug'dirganini ta'kidlagan¹². Ushbu yuridik precedentdan shuni anglashimiz mumkinki, so'z erkinligi cheksiz emas – u jamiyatga xavfsizligiga real tahdid solganda va ma'lum bir favqulodda vaziyatlarda cheklanishi mumkin.

3.Shaxsiy hayot daxlsizligi (Privacy rights) – tergov, epedimiya va favqulodda holatlarda xavfsizlik choralarini ta'minlash uchun hukumat tomonidan insonlarning ushbu huquqi ham vaqtinchalik cheklaishi mumkin.

4.Qurollanish huquqi (Right to bear arms) – favqulodda holatlarda xavfsizlik uchun vaqtinchalik taqiqlar joriy qilinishi mumkin. Va ushbu taqiqlar joriy qilingan vaqtda AQSH fuqarolarining qurollanish huquqi vaqtincha cheklanishi mumkin.

Endi qo'shnimiz bo'lgan huquqiy tizimi ham bizning huquqiy tizim bilan juda ham o'xshash bo'lgan Qozog'iston qonunchiligini ko'rib chiqamiz. Qozog'iston Respublikasining asosiy qonuni hisoblanagn konstitutsiyasida aynan ma'lum bir holatlarda inson huquqlarini cheklash mumkinligi to'g'risida norma mavjud va biz ushbu normani tahlil qilamiz. Demak, Qozog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi 39-moddasiga nazar soladigan bo'lsak:

"1Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari faqat qonun bilan hamda konstitutsiyaviy tuzumni, jamoat tartibini, inson huquq va erkinliklarini, aholi salomatligi va ma'naviyatini himoya qilish uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanishi mumkin.

2.Millatlar va dinlararo totuvlikni buzishi mumkin bo'lgan har qanday harakat konstitutsiyaga zid deb topiladi.

3.Fuqarolarning huquq va erkinliklarini siyosiy sabablarga ko'ra cheklashga hech qanday shaklda yovl qo'yilmaydi. Konstitutsiyaning 11, 13-15-moddalarida, 16-moddasining 1-bandida, 17-moddasida, 19-moddasida, 22-moddasida, 26-moddasining 2-bandida nazarda tutilgan huquq va erkinliklar hech qanday tarzda cheklanishi mumkin emas"¹³. Demak, biz e'tibor berishimiz mumkin bo'lgan jihat, insonlarning mutlaq huquqlari hisoblangan ba'zi bir huquqlar hattoki favqulodda holat davrida ham cheklanishiga yo'l qo'yilmasligi Qozog'iston Konstitutsiyasida o'z aksini topganligi. Endi ushbu huquqlar qaysi huquqlar degan savolga javob beramiz:

11-modda. 1.Agar respublikaning xalqaro shartnomalarida boshacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, Qozog'iston Respublikasi fuqarosi chet davlatga topshirilishi mumki emas.

2.Respublika o'z fuqarolarini o'z chegaralaridan tashqarida himoya qiladi va yordam beradi¹⁴. Demak, xalqaro shartnomada boshqacha tartib bo'lmasa, hattoki favqulodda holat davrida ham Qozog'iston Respublikasi fuqarosi chet davlatga topshirilishi mumkin emas.

Navbatdagi cheklash mumkin bo'lmagan huquq 13-moddada o'z aksini topgan:

"Har kim o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqiga ega. Har kim malakali yuridik yordam olish huquqiga ega. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam bepul ko'rsatiladi"¹⁵. Demak, Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini sudda himoya qilish huquqi, shuningdek, malakali yuridik yordam olish kabi huquqlarini favqulodda holat rejimi davrida ham cheklashga yo'l qo'yilmaydi.

Navbatdagi modda:

¹¹ <https://www.law.cornell.edu/supremecourt/text/249/47>

¹² <https://www.law.cornell.edu/supremecourt/text/249/47>

¹³ <https://www.akorda.kz/en/constitution-of-the-republic-of-kazakhstan-50912>

¹⁴ <https://www.akorda.kz/en/constitution-of-the-republic-of-kazakhstan-50912>

¹⁵ <https://www.akorda.kz/en/constitution-of-the-republic-of-kazakhstan-50912>

15-modda. "Yashash huquqi".

16-moddaning 1-bandi. "Har bir inson shaxsiy erkinlik huquqiga ega".

17-modda. "Inson qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech kim qiynoqlarga, zo'rvonlikka yoki boshqa shafqatsiz yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoki jazoga duchor bo'lishi mumkin emas".

19-modda. "Har kim o'z fuqaroligi, siyosiy partiyasi va diniy mansubligini tanlash va e'lon qilish yoki e'lon qilmaslik huquqiga ega. Har kim o'z ona tili va madaniyatidan foydalansin, muloqot, ta'lim va ijod tilini erkin tanlash huquqiga ega".

22-modda. "Har bir inson vijdon erkinligi huquqiga ega. Vijdon erkinligi huquqi hech qanday umuminsoniy va fuqarolik huquqi yoki davlat oldidagi burchlariga bo'ysunmaydi yoki ular bilan cheklanmaydi". 26-moddaning 2-qismi. "Mulk, shu jumladan, meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi"¹⁶. Mana shu yuqorida keltirilgan inson huquqlari Qozog'iston qonunchiligiga ko'ra hattoki favquodda holatlarda ham cheklanishi mumkin emas. Demak, ushbu cheklab bo'lmaydigan inson huquqlarining Qozog'iston Konstitutsiyasida o'z aksini topganligi bu Qozog'iston huquqiy tizimining yutug'i hisoblanadi.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-moddasida favqulodda holatlar joriy qilinganda inson huquqlarining ba'zilarini cheklanishi to'g'risida norma mavjud. Lekin ushbu normada har qanday holatda ham cheklab bo'lmaydigan inson huquqlari ko'rsatilmagan. Shuning uchun ushbu normaga "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt" da ko'rsatilgan har qanday holatda ham cheklab bo'lmaydigan normalar o'z aksini topishi kerak. Ya'ni 21-moddaning 4-qismi sifatida yangi normani qo'shish kerak: "Har qanday holatda ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasi (yashash huquqi), 26-moddasi (insonning sha'ni va qimmatini daxlsizligi), 29-moddasi (har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanishi), 33-moddaning 1-qismi (har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga egaligi) kabi inson huquqlarini cheklab bo'lmaydi".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://www.presidency.ucsb.edu/documents/proclamation-1354-emergency-water-transportation-the-united-states>
2. National Emergencies Act. <https://www.govinfo.gov/content/pkg/COMPS-10385/pdf/COMPS-10385.pdf>
3. "National Action Plan for Pandemic Influenza and New Infectious Diseases" <https://www.cas.go.jp/jp/seisaku/ful/keikaku/pdf/national%20action%20plan.pdf>
4. <https://www.venice.coe.int/files/EmergencyPowersObservatory/GER-E.htm>
5. <https://www.loc.gov/item/global-legal-monitor/2020-11-24/germany-amendments-to-infectious-diseases-protection-act-enter-into>
6. <https://www.dw.com/en/germany-pandemic-state-of-emergency-may-end-in-november/a-5954042>
7. <https://www.law.cornell.edu/supremecourt/text/249/47>
8. <https://www.akorda.kz/en/constitution-of-the-republic-of-kazakhstan-50912>

¹⁶ <https://www.akorda.kz/en/constitution-of-the-republic-of-kazakhstan-50912>